

USTRUSHONADA ISLOMGA QADAR MA'NAVIY HAYOT TARZI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Qobilov Sardor Ixtiyor o'g'li

Jizzax davlat pedagogika
universiteti Tarix fakulteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada Ustrushonada islomga qadar shakllangan ma'naviy hayot tizimi va uning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda zardushtiylik, mahalliy e'tiqodlar va urf-odatlarining jamiyat hayotidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, ushbu ma'naviy tizimning o'ziga xos jihatlari va keyingi davr madaniyatiga ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Ustrushona madaniy o'lkasi, terrakota-sanam haykalcha, zardushtiylik ostodonlari, shoxli qo'chqor haykalchalar, turli xil kult va totemistik tasavvurlar, "Desi ruhi"ga sig'inish, "mug'lar", qo'y va bo'ri kultlari.

Ustrushonaliklarning islomga qadar diniy e'tiqodi va tasavvurlari haqida yozma manbalarda ma'lumot atroflicha berilgan bo'lib, aynan ushbu tarixiy masalalarning yechimiga doir maxsus yozma yodgorliklar mavjud emas. Shu sababli, Ustrushonaning ilk o'rta asrlar davri diniy e'tiqodi tarixi, avvalo arxeologik materiallar asosida, qolaversa Sug'd, Choch, Farg'ona kabi qo'shni o'lkalardagi mavjud ma'lumotlarga nisbatan qiyosiy solishtirish tarzida va albatta, afsonaviy-epik, xalq og'zaki ijodi hamda etnografik materiallar asosida o'rganishni toqazo qiladi.

Ustrushona aholisining butparastlik an'analari mavjud bo'lganini at-Tabariy asarlaridagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Muallifning yozishicha, 737-yilda arab bosqinlari natijasida Xuttalon valiahdi Axa Jish boshchiligidagi qochoqlar Ustrushonaga kelib panohtopgan. Ular o'zlari bilan ko'plab butlarni olib kelib, ularni ehtimol avvaldan mavjud bo'lgan ibodatxonalarga (butxonalarga) o'rnatganlar. Shuningdek, Buttam viloyatining qayta istilo qilinishi jarayonida Qutayba ibn Muslim

qo'shinlari tomonidan qo'lga kiritilgan o'ljalar orasida oltindan yasalgan butlarning mavjudligi ham qayd etiladi. Ushbu ma'lumotlar Ustrushona va unga tutash hududlarda butparastlik e'tiqodlari keng tarqalganini ko'rsatadi¹.

Demak, yozma manbalar ma'lumoti asosida ma'lum bo'lishicha ilk o'rta asrlarda Ustrushonada butparastlik dini muomalada bo'lgan. Bu borada Zomin shahridan 3 km sharqda Chetariq qishlog'ida joylashgan qadimiy Mozortepa qishloq makonidan tasodifan topilgan terrakota-sanam haykalcha diqqatga sazovardir. Sanam haykalcha yaxshi ishlov berilgan loydan "matritsa"-qolip yordamida yasalgan, bir maromda pishirilgan, och malla angob bilan bo'yalgan. Haykalchani bel qismidan pasti singan, uning saqlanib qolgan bo'yi – 6,5sm.ga teng. Haykalchani bosh qismi tik, biroz yerga qaragan, qo'llari chalkashgan tarzda, chap qo'l o'ng qo'lning ustidan o'tgan, chap qo'lning bosh barmog'i aniq ifodalangan, bilagiga orqama-ketin 2 ta bilakuzuk taqilgan. Shuningdek, Zomin shahridagi Oqtepa shahar yodgorligining ilk o'rta asr qatlamlaridan topilgan yana bir terrakota haykalcha e'tiborga molikdir. Ushbu haykalchada ham erkak obrazi tasvirlangan bo'lib, uning boshi yuqoriga ko'tarilgan, nigohlari tepaga (osmonga) qaragan. Haykalcha o'rtacha sifatli loydan yasalgan bo'lib, qizil angob bilan bo'yalgan².

Ustrushonashunos A. A. Gritsinaning e'tiroficha, birinchi haykalcha qo'llarini chalkashtirganicha bir-birini ustiga qo'yib xoch tasvirini berish an'anasi hind ikonografiyasida keng tarqalgan bo'lib, bu orqali Vajra xunkar ma'budi ifodalangan. Ikkinchi haykalcha timsolida tizzasini yerga tekkizib, cho'kkalab o'tirib toat-ibodat amalini bajarayotgan ma'bud (but, sanam) tasvirlangan. Shunday qilib, yozma va arxeologik manbalar asosida ilk o'rta asrlarda Ustrushonada butparastlik dini taomilda bo'lgan, degan fikrni bermoqda. Bu esa ba'zi ustrushonashunoslar o'rtasida Ustrushonada Budda dini faoliyatda bo'lgan, degan fikrga kelishlariga sabab bo'lgan.

Xitoylik sayyoh Xoy Chaoning 726-yilga oid ma'lumotlariga ko'ra, Samarqandda yagona Budda ibodatxonasi mavjud bo'lib, unda bor-yo'g'i bir nafar

¹Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг ilk ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Т, 2016. 259 б.

² Буряков Ю. Грицина А.А. Мавераннахр на Великом Шелковом пути. Самарканд-Бишкек, 2006. с.121-123.

kohin faoliyat ko'rsatgan. Qolgan hududlarda ibodatxonalar mavjud bo'lmagan. Ushbu tarixiy manbalarni chuqur tahlil qilgan N. Negmatov but, sanamlar bilan bog'liq diniy tasavvurlarni O'rta Osiyo, jumladan Ustrushona xalqlari diniy taomilida bo'lgan zardushtiylikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, but, sanamlarga topinish haqidagi manbalar ma'lumoti olovga sig'inish (mug') haqidagi xabarlar bilan birga berilib ularni uyg'unlashib ketgani bilan, xususan Xoy Chaoning Sug'd va Ustrushona aholisi osmon ma'budi olovga sig'inishi haqida xabar bilan asoslaydi.

Shuningdek, N. Negmatovning yozishicha, yuqorida sud jarayoni bayon qilingan Haydar al-Afshinning Vaziriyadagi qasri tintuv qilinganda mug'lar (otashparastlar) foydalanadigan "kitoblar-kitobi" Zaravax topiladi. Haydar al-Afshin Zaratushtra dinining asl mazmun, mohiyatini o'zida ifoda etgan, zardushtiylarning muqaddas kitobi Zaravaxni tillo-zabarjadlar bilan bezagan, ipak parcha matolari bilan o'ragan holda, asrab-avaylab saqlagan ekan. Sudda Haydar al-Afshinni musulmon bo'laturib Qur'ondan emas otashparastlar kitobidan adab va ta'lim olganlikda ayblashadi³.

So'nggi yillardagi izlanishlar, jumladan Y. G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti Jizzax ekspeditsiyasi 2010-yilda G'allaorol tumani Tera-Mulkush qishlog'i hududida qidiruv-qazuv tadqiqotlarini o'tkazdi. Natijada, Tera-Mulkush qishlog'idan 10 dona ostadon majmuasi topildi. Bu Jizzax viloyati hududidan topilgan dastlabki, ko'p sonli "klassik" usuldagi ostadonlar majmuasi bo'lib, Tera-Mulkush ostadonlari mahalliy soz tuproq loyidan qo'lda tayyorlangan, xumdonda pishirilgan, ichki va sirt tomonlari quyuq, qizg'ish rangli angob bilan bo'yalgan. Ostadonlar ustki qismining old tarafi shahar, qal'a qo'rg'onining mudofaa inshootlari tasvirini beruvchi kungurador devor shaklida yasalgan, uning ichki tomonida idish qopqog'i zich

³Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Т, 2016. 260 б.

joylashishi uchun maxsus novsimon aylana moslama, kungurador devorning tagiga turli bezak va naqshlar tushirilgan⁴.

Ko'p yillik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Ustrushonada, ayniqsa uning shimoliy-g'arbiy sarhadlarida ham islomga qadar bo'lgan davrda avvalo o'troq dehqon aholi zardushtiylikka keng va qat'iy amal qilgan. O'lim hodisasi bilan bog'liq marosim va urf-odatlarda ostadonlar o'rnini sopol idishlar, xususan, turli o'lchamdagi xum va xumchalar bajargan. Jizzax shahridagi Qaliyatepa shahar yodgorligi atrofidan, Komilbobotepa qal'asi madaniy qatlamlaridan, Zomin vohasidagi Qo'shtepa qishloq yodgorligi, Birlashgan qishlog'idan ko'plab xum ostadonlar qayd etilgan⁵.

Shunday qilib, G'arbiy Ustrushonadan topilgan ostadonlar majmuasi o'zining yasaliş texnikasi, shakli, naqshlar va bezaklaridagi "syujet"lari va albatta, qo'llanilishiga ko'ra, avvalo "lokal", mahalliy xususiyatlarni o'zida to'liq aks ettiradi. Shunga qaramasdan, ostadonlardagi ba'zi xususiyat va ko'rinishlar Farg'ona, Choch, Sug'd zardushtiy qavmlarida iste'molda bo'lgan qutisimon, qayiqsimon ostadonlarga o'xshab ketadi. Qiyosiy tahlillarga ko'ra, G'arbiy Ustrushona ostadonlari majmuasini milodiy eraning VII asri ikkinchi yarmi VIII asr boshlari bilan davrlash mumkin⁶.

Madaniy va diniy hayot haqida ma'lumotlar beruvchi yana bir topilma xum ostadonlar 1991-yil Komilbobotepa qal'asida devorga taqab qo'yilgan 3 ta xumlarda qayd etildi. Qazuv ishlaridan so'ng butunlay ochilgan bu topilmalarni xum-ostadon ekanligi aniqlandi va ulardan bittasi devorga taqab, 2 tasi esa devorni yorib, uni ichiga qo'yilgani ma'lum bo'ldi. Bir qator qilib terilgan bu xumlar maxsus qilingan, sun'iy ravishda shibbalangan tekis yer sathi ustida joylashgan. O'rtada joylashgan katta xumning og'zi ichi chuqur aylana qopqoq bilan berkitilgan⁷. Aniqlashicha, birinchi

⁴Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари(ёзма ва археологик манбалар асосида). Т, 2016. 262-264 б.

⁵Грицина А.А. О погребениях в хумах в Зааминском тумане // ИМКУ, Вып.30. Самарканд, 1999. С.223-225., Пардаев М.Х. Қалиятепа шаҳар ёдгорлиги ва унинг стратиграфиясига доир айрим мулоҳазалар // ЎММТ, 31-нашри, Самарканд, 2000. 148-149 б., Пардаев.М.Х. Комилбоботепа қалъаси. ЎММТ. 32-нашри. Самарканд, 2001.141 б.

⁶ Пардаев М.Х. Гофуров, Ж.И. Ғарбий Уструшонада зардуштий қавмлар излари. Ўзбекистон Археологияси. №1 (2). Самарканд, 2011. 85-88 б.

⁷ Пардаев.М.Х. Комилбоботепа қалъаси. ЎММТ. 32-нашри. Самарканд, 2001.141 б.

xumda katta yoshli erkak kishini, ikkinchi xumda navqiron yoshdagi yigitni va uchinchi xumda o'spirin bolani suyaklari saqlangan.

Shunday qilib, zardushtiylik dinining ko'mish marosimi bilan bog'liq an'anaviy urf-odatlarda mayit eti it, qarg'a quzg'unlarga yem qilingan yoki maxsus odamlar orqali shilingan, suyaklar maxsus quti va xumlarda saqlangan. Ayrim hollarda yaxshi tozalangan suyaklar dahma minorasida ochiq holda ham qoldirilgan. Bu "chora", ya'ni dafn marosimi orqali zardushtiylikdagi eng muqaddas to'rt unsur, yer usti dunyosining asosiy omili – suv, olov, yer, havoni bulg'anishi, harom qilinishining oldi olingan.

Ma'lumki, Ustrushona aholisining arablarga qattiq qarshilik ko'rsatgani sababli, istilochilar uni O'rta Osiyoning boshqa viloyatlariga qaraganda eng so'nggi paytda zabt etishgan. 752-yilda Ustrushona hokimi arablarga qarshi xitoyliklardan harbiy yordam so'raydi, lekin bu so'rov ijobiy hal bo'lmaydi. 822-yilda arablar Ustrushonani qaytadan to'la-to'kis ishg'ol etishadi va u Tohiriylar davlati tarkibiga qo'shib olinadi. 893-yilda esa Ismoil Somoniy qo'shinlari tomonidan tor-mor etilgan Usrtushonada "afshin"lar sulolasi butunlay tugatiladi⁸.

Ustrushona qishloq aholisining totemistik tasavvurlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, Pardaqultepa va Komilbobotepa qal'alarini ochish mobaynida bir qancha topilmalar qo'lga kiritildiki, mazkur ashyoviy dalillar o'sha davr ideologiyasi, diniy dunyoqarashlari, turmushdagi ba'zi bir urf-odat va rasm-rusumlari haqida ma'lumot berishi mumkin. Alohida e'tiborga molik bo'lgan shunday topilmalar qatoriga burama shoxli qo'chqor xaykalchalari va ushbu haykalchalarga taqlid qilib yasalgan maxsus buyumlarni kiritish mumkin. Dastavval, haykalcha uchun o'rtacha sifatli, qizg'ish tuproq loyidan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi g'ishtsimon "tana" yasalgan. Loy tarkibiga maydalangan sopol va oqtosh parchalari qo'shilgan. So'ngra mazkur "tana"ning qarama-qarshi ikki tepa burchak tomoniga alohida yasalgan, shakl va o'lchamlari bir-biridan deyarli farq qilmaydigan ikkita burama shoxli qo'chqor boshi o'rnatilgan. Haykalcha tanasi uzunligi 12,5 sm, bo'yin va bosh qismi uzunligi 8,3 sm.

⁸Негматов. Н.Н. Уструшана в древности и ранне средневековья. – Сталинабад, 1957. с. 43.

Haykalcha sirlanmagan, shunga qaramasdan loy tarkibi va xumdonda pishirilishi sababli tabiiy holdagi qizg'ish tusni olgan⁹.

Ikkinchi shunday haykalcha Komilbobotepa qal'asidan topildi. Haykalcha birinchi topilmaga o'xshab butun holda saqlanmagan. Uning qoldig'i to'g'ri to'rtburchak g'ishtsimon shakldagi tananing bir qismi va uning tepa burchagi uchiga o'rnatilgan qo'chqor boshidan iborat. Haykalcha tanasining saqlangan uzunligi 11,2 sm., saqlangan balandligi 12,5 sm. Mazkur shoxli qo'chqor haykalchasi yasalish jihatdan birinchi topilmadan ancha farq qiladi. Haykalchanning xom ashyosi sifatida yaxshi iylangan qizg'ish tuproq loyidan foydalanilgan. Loy tarkibiga maxsus maydalangan kvarts toshi, sopol kukuni, ohak va qum qo'shilgan.¹⁰ Shunga o'xshash qo'chqor haykalchasining bosh qismi G'allaorol vodiysidagi Qo'rg'ontepa yodgorligidan ham qayd etilgan.

Darhaqiqat, qo'y tasviri asosan mil. eraning I ming yilligi o'rtalarida Sirdaryoning o'rta oqimi havzasida joylashgan "Qovunchi madaniyati" ga tobe kangyuy qabilalari orasida keng tarqalgan. Bir qancha tadqiqotchilar mazkur omilga asoslanib qo'y tasvirini zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto" da qayd etilgan va qadimgi eron aholisi o'rtasida keng tarqalgan "xvarn" (farn) topinchi bilan bog'laydi. Aynan sopol idishlar, uzuk, bilakuzuk va muhrlarga tasviri tushirilgan Choch zoomorf topilmalari xususida tadqiqotlar olib borgan G. Bogomolovning fikricha, ilk o'rta asrlarda ko'p ma'budlar timsoli turli jonivorlar ko'rinishida ifodalangan¹¹.

Sosoniylar Eronida Shopur II davridan qo'y obrazi xudo farni timsolida keng tarqaladi. Yozma manbalarning xabariga ko'ra, bir safar Shopur II qo'y kallasiga o'xshatib yasalgan, oltin suvi yuritilib, qimmatbaho toshlar qadalgan dubulg'a kiyib jangda qatnashadi. Tadqiqotchilarning fikricha, dubulg'adagi qo'y tasviri bir tomondan urush va g'alaba xudosi Veretragna atributi bo'lsa, ikkinchi tomondan

⁹Пардаев М.Х. Қўй ва бўри рўҳига сиғинишнинг ўзаро боғлиқлиги ҳақида // ЎЗИФ, №1-2-3; Т,1995. 42-46 б.

¹⁰ Пардаев.М.Х. Комилбоботепа қалъаси. ЎММТ. 32-нашри. Самарқанд, 2001.140-141 б.

¹¹Богомолов Г.И. Зооморфныя культы раннесредневекового Чача // Археология Узбекистана, № 1 (10) Самарканд, 2015, с. 33-45.

hukmdorlik, shohlik farnini ulug‘lash ham demakdir. Shunday qilib, ko‘plab tadqiqotchilar o‘rta Sirdaryo bo‘yi havzasida joylashgan yodgorliklardan topilgan qo‘y tasviri tushirilgan baldoqli idishlarni va haykalchalarni zardushtiylik dini bilan va bu orqali Eron ma‘naviy madaniyati bilan bog‘lashga harakat qiladi. Xuddi shuning uchun ham qo‘y “kul’ti” bilan bog‘liq keyingi va hozirgi zamonga taalluqli etnografik ma‘lumotlarni O‘rta Osiyoning faqat forsiy zabon aholisi yashaydigan tog‘ va tog‘ oldi vohalaridan keltiradi.

Xitoy sulolaviy yilnomalaridan yozilishicha, turklarning qadimgi bobokalonlari katta botqoqlik yaqinida yashagan va qo‘shni qabila tomonidan butunlay qirib tashlangan. Omon qolgan 10 yoshli bolani ona bo‘ri Gaoganning (Turfon vohasi) shimolidagi g‘orga yashirib qutqaradi va uni o‘z suti bilan boqadi. O‘smirning o‘nta o‘g‘il farzandi bo‘ladi. Ularning barchasi Gaoganlik qizlarga uylanishadi va turli turk urug‘larining asoschilariga aylanishadi. Ulardan biri Ashina davlat tepasiga keladi va o‘zining kelib chiqish shajarasi xotirasiga hamda uni ulug‘lash maqsadida o‘z bayrog‘iga bo‘ri boshi tasvirini tushiradi. Xitoyliklarning ushbu yozma manbasida aytilishicha, Xunnu oilasidan chiqqan qadimgi turk xoqonlari o‘z qabuliga kelgan elchilarni bo‘ri tasviri tushirilgan bayroqqa sajda qilishga majbur etishgan¹².

Bundan tashqari, Qal‘ayi-Qaxqaxa I yodgorligida ochilgan Ustrushona afshinlari saroyi devoriy sur‘atlaridan biridagi 6 m.li tasviriy san‘at namunasida ikki go‘dakni emizayotgan ona bo‘ri qiyofasi ifodalangan. N. Negmatovning yozishicha, afshinlar saroyi VII asrda qurilgan va 893 yilda Ismoil Somoniy tomonidan vayron qilingan. Bo‘ri timsoli O‘rta Osiyo xalqlari og‘zaki ijodida ham o‘z aksini topgan. Xususan, o‘zbek xalq dostoni “Alpomish”da qahramonlar bosh urug‘i bo‘ridan tarqalgani, Alpomishning otasi Boybo‘ri, deb atalishi, “Kuntug‘mushda” esa bo‘ri va nahang tomonidan olib qochilgan bolalar haqidagi hikoyalar haqiqatan ham bu mavzuni yoritishda mahalliy manba va ma‘lumotlarning ko‘pligini ko‘rsatadi. Hozirga

¹²Пардаев М.Х., Фофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Т, 2016. 281-282 б.

qadar saqlanib qolgan xalq baxshilari tomonidan aytilayotgan mazkur eposlar ildizi albatta qadimgi turkiy asotirlardan manba olganligini anglash mumkin¹³.

Qadimgi Ustrushona aholisi e'tiqodiy qarashlarida turli xil kult va totemistik tasavvurlar muhim o'rin egallagan. Xususan, it kult, qo'y, bo'ri, taka va baqa totemlari bilan bir qatorda, tanasi ho'kiz, yuzi esa odam sifatida tasvirlangan Gopadshoh obrazi hamda ilohiy "farn" tushunchasi bilan bog'liq holda otga sig'inish e'tiqodi keng tarqalgan. Manbalarda aholi orasida "Desi ruhi"ga sig'inish holatlari ham qayd etilgan. Shuningdek, Ustrushonada animizm va totemizm unsurlari bilan qorishib ketgan shomonlik e'tiqodi mavjud bo'lib, unda oliy iloh sifatida Ko'k Tangriga sig'inish muhim o'rin tutgan. Aholining ma'lum qismi otashparastlikka e'tiqod qilgan bo'lib, ular "mug'lar" deb atalgan, ushbu atama o'z mazmuniga ko'ra olovga sig'inuvchi ma'nosini anglatadi. Shu bilan birga, hududda zardushtiylik bilan bir qatorda buddaviylik va moniylik dinlari ham keng tarqalgan edi.

VI–VII asrlarga oid ayrim Ustrushona tangalarida hukmdor tasviri bilan birga fil va nasroniy xochi tasvirlarining uchrashi alohida e'tiborga loyiq. Buddaviylikda fil donolik timsoli hisoblangan bo'lsa-da, uning nasroniy xochi bilan birgalikda tasvirlanishi diniy sinkretizmning yorqin namunasidir. Bunday ikonografik uyg'unlik asosan buddaviylik, zardushtiylik va nasroniylik an'alarini o'zida mujassam etgan moniylik doirasida kuzatiladi. Bu esa Ustrushonada moniylikning ham muhim o'rin tutganini ko'rsatadi¹⁴. Umuman olganda, Ustrushonaning muhim strategik hududda joylashgani uni turli diniy ta'limotlar va g'oyalar kesishgan makonga aylantirgan. Natijada bu yerda diniy-sinkretik muhit shakllanib, u hududning ilmiy va ma'naviy hayotiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, Ustrushonada islomga qadar bo'lgan davrda ma'naviy hayot murakkab hamda ko'p qatlamli xususiyatga ega bo'lgan. Din va diniy dunyoqarashlar jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Yozma manbalar cheklangan bo'lishiga

¹³Пардаев М.Х. Қўй ва бўри рўҳига сиғинишнинг ўзаро боғлиқлиги ҳақида // ЎзИФ, №1-2-3; Т,1995. 42-46 б.

¹⁴Atayev M. R. "Ustrushonaning qadimgi va birinchi renessans davrlari tarixi manbashunoslik tahlili". tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun qilingan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. 2026. 23-24-b.

qaramay, mavjud xitoy, sug‘d va arab manbalari mintaqada turli diniy e‘tiqodlar keng tarqalganini tasdiqlaydi. Xususan, zardushtiylik bilan bir qatorda nasroniylik, moniylik, shomoniylik hamda butparastlik kabi diniy tizimlar faol amal qilgan. Shu bilan birga, arxeologik topilmalar va moddiy madaniyat namunalariga asoslanib, qo‘y kulti, bo‘ri totemi kabi qadimgi e‘tiqodiy tasavvurlar ham aholining ruhiy hayotida muhim o‘rin egallaganini ko‘rish mumkin. Mazkur omillar Ustrushona aholisi ma‘naviy hayotining sinkretik xarakterga ega bo‘lib, unda turli diniy qarashlar va urf-odatlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda rivojlanganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atayev M. R. “Ustrushananing qadimgi va birinchi renessans davrlari tarixi manbashunoslik tahlili”. tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun qilingan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. 2026.
2. Богомолов Г.И. Зооморфные культы раннесредневекового Чача // Археология Узбекистана, № 1 (10) Самарканд. 2015.
3. Буряков Ю. Грицина А.А. Мавераннахр на Великом Шелковом пути. Самарканд-Бишкек. 2006.
4. Грицина А.А. О погребениях в хумах в Зааминском тумане // ИМКУ, Вып.30. Самарканд. 1993.
5. Негматов. Н.Н. Уструшана в древности и ранне средневековья. Сталинабад. 1957.
6. Пардаев М.Х. Қўй ва бўри рўҳига сиғинишнинг ўзаро боғлиқлиги ҳақида // ЎЗИФ, №1-2-3; Тошкент. 1995.
7. Пардаев М.Х. Қалиятёпа шаҳар ёдгорлиги ва унинг стратиграфиясига доир айрим мулоҳазалар // ЎММТ, 31-нашри, Самарқанд. 2000.
8. Пардаев.М.Х. Комилбоботепа қалъаси. ЎММТ. 32-нашри. Самарқанд, 2001
9. Пардаев М.Х. Гофуров, Ж.И. Фарбий Уструшонада зардуштий қавмлар излари. Ўзбекистон Археологияси. №1 (2). Самарқанд. 2011

10. Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент. 2016.